

“INNOVATION G‘OYALARNI TIJORATLASHTIRISH MEXANIZMLARI”

Ibragimov Asliddin
Rustamov Suhrobjon
Shuhrataliyev Muhammadazizxon

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Menejment" fakul'teti "Biznesni boshqarish" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Mazkur tezisdagi hozirgi globallashtirish sharoitida innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni bozorda muvaffaqiyatli joriy etish, startaplar faoliyati, investitsiya jalb qilish usullari va davlat qo‘llab-quvvatlashi yoritilgan. Hozirgi globallashtirish jarayonining kuchayishi natijasida yuzaga kelayotgan raqobat muhitida innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirishning zarurligi asoslab berilgan.

Shuningdek, tijoratlashtirishning asosiy bosqichlari (g‘oya yaratish, prototip ishlab chiqish, sinov, investitsiya jalb qilish va bozorga chiqarish) hamda mexanizmlari (startap modeli, texnologiya transferi, venchur moliyalashtirish, biznes inkubatorlar, patentlash va litsenziyalash) ko‘rib chiqilgan. Real misollar (Amazon, Tesla va boshqalar) asosida tijoratlashtirish jarayoni tushuntirilgan hamda ularning biznes samaradorligiga ta’siri yoritilgan.

Raqamli transformatsiya va zamonaviy texnologiyalarning tijoratlashtirishdagi roli tahlil qilingan. Innovatsiyalarni tijoratlashtirishda uchraydigan muammolar (moliyaviy resurslar yetishmasligi, yuqori risk, bozorni noto‘g‘ri baholash) va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston misolida globallashtirish sharoitida innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish iqtisodiy o‘shishning muhim drayveri va raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omil ekanligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, tijoratlashtirish, startap, venchur kapital, biznes model, texnologiya transferi, IT Park, raqamli iqtisodiyot, globallashtirish, raqobatbardoshlik, patentlash, inkubator, akselerator, iqtisodiy rivojlanish, samaradorlik, sun’iy intellekt, investitsiya, davlat qo‘llab-quvvatlashi

Hozirgi kunda globallashtirish jarayoni jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib, barcha sohalarda, xususan innovatsion tadbirkorlik faoliyatida chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Global integratsiya natijasida bozorlar o‘zaro bog‘lanib, raqobat keskinlashmoqda. Oddiy g‘oya tijoratlashtirilmaguncha iqtisodiy qiymat yaratmaydi. Shu sababli innovatsion g‘oyalarni bozorga olib chiqish va ularni daromad manbaiga aylantirish zamonaviy tadbirkorlikning asosiy vazifasiga aylangan. Tijoratlashtirish jarayoni iqtisodiy o‘shishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi va u ilk bor Joseph Schumpeter tomonidan “ijodiy buzilish” nazariyasida ilmiy asoslab berilgan. Unga ko‘ra, innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali yangi bozorlar yaratiladi va eski tuzilmalar o‘rnini bosadi.

Globallashtirish innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashuviga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. U ilmiy-texnik bilimlar va texnologiyalarning tezkor

tarqalishini ta'minlaydi, yangi bozorlarni ochadi va xalqaro investitsiyalarni jalb qiladi. Biroq raqobat ham kuchayadi. Endilikda startaplar nafaqat mahalliy, balki global gigantlar bilan raqobatlashadi. Bu esa tijoratlashtirishni strategik zaruratga aylantiradi.

Innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish mexanizmlari ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Joseph Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning "ijodiy buzilish" kuchi deb ta'riflagan bo'lsa, Peter Drucker uni tadbirkorlikning eng muhim vositasi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, innovatsiya resurslarga yangi qiymat beradi. Henry Chesbrough "ochik innovatsiya" nazariyasida tijoratlashtirishni ichki va tashqi bilimlarni birlashtirish orqali amalga oshirishni taklif qiladi. David Teece esa "profiting from innovation" modelida innovatsiyalardan foyda olish mexanizmlari (komplementar aktivlar va biznes-modellar) muhimligini ta'kidlaydi. Manuel Castells axborot jamiyati nazariyasida globallashuv va texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi.

Innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

G'oya yaratish va tahlil qilish;

Prototip ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish;

Investitsiya jalb qilish;

Mahsulotni bozorga chiqarish va masshtablash.

Tijoratlashtirishning asosiy mexanizmlari quyidagilar:

- Startap modeli – yangi g'oyalarni tez rivojlantirish va bozorga chiqarish uchun ideal shakl.

- Texnologiya transferi – universitetlar va ilmiy markazlardan sanoatga o'tkazish.

- Venchur moliyalashtirish – yuqori riskli loyihalarga xususiy kapital jalb qilish.

- Biznes inkubatorlar va akseleratorlar – g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va tayyorlash.

- Patentlash va litsenziyalash – intellektual mulkni himoya qilish va sotish.

Demak, har bir mexanizm o'z yo'nalishidan kelib chiqib biznes rivojiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Masalan, startap modeli yangi bozorlarni egallashga yordam bersa, venchur kapital ishlab chiqarishni tezlashtiradi. Raqamli transformatsiya hozirgi davr tijoratlashtirishining eng muhim ko'rinishlaridan biridir. Sun'iy intellekt, Big Data va IoT texnologiyalari biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Masalan, Amazon kompaniyasi dastlab oddiy onlayn kitob do'koni sifatida tashkil etilgan bo'lsa, innovatsion biznes modeli orqali global savdo platformasiga aylandi. Tesla kompaniyasi elektromobillar orqali avtomobil sanoatida inqilob qildi. Uber va Airbnb kabi kompaniyalar ham platforma biznes-modellari orqali an'anaviy sohalarni buzib, yangi qiymat yaratdilar.

Raqamli texnologiyalar quyidagi afzalliklarni beradi:

- tezkor qaror qabul qilish;

- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish;

- mijozlar bilan samarali aloqa;

- yangi biznes modellari yaratish.

Innovatsiyalarni tijoratashtirish jarayoni murakkab bo'lib, bir qator muammolar bilan bog'liq. Jumladan, moliyaviy resurslar yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi, yuqori risk darajasi va bozorni noto'g'ri baholash asosiy to'siqlar hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi choralar muhim:

- a. davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (grantlar va imtiyozlar);
- b. venchur kapital va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish;
- c. ta'lim tizimini rivojlantirish va inkubatorlar yaratish;
- d. innovatsion infratuzilmani (IT Park kabi) takomillashtirish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham innovatsion g'oyalarni tijoratashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, IT Park Uzbekistan faoliyati innovatsion biznesni rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. 2025 yilda O'zbekiston startaplariga investitsiyalar 5,2 baravar o'sib, 329 million AQSh dollariga yetdi. Bitimlar soni 38 tadan 140 taga, startaplar soni esa 400 tadan 750 taga oshdi. IT Park a'zolari soni 3500 dan oshdi, kuzgi mavsumda 470 ta yangi kompaniya qo'shildi. IT Park Ventures fondi 2025 yil oxiriga kelib 70 ga yaqin startap portfelini shakllantirdi va 7,1 million dollarlik shartnomalar imzoladi.

Yurtimizda rivojlantirish mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar:

- IT va startaplar (raqamli iqtisodiyot);
- Qishloq xo'jaligi va agro-biznes (eksportga yo'naltirilgan);
- Turizm va xizmat ko'rsatish sohasi;
- Sanoat va ishlab chiqarish;
- Logistika va transport.

Innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida ularga berilayotgan imtiyozlarni ko'rish mumkin:

- kichik va o'rta biznes uchun soliq imtiyozlari;
- eksport qiluvchi startaplar uchun rag'batlantiruvchi choralar;
- innovatsion loyihalar uchun grantlar va R&D voucherlari (prototip xarajatlarining 50% gacha);
- "Digital Startups" dasturi doirasida 10 000 dollargacha grantlar;
- Prezident qarorlari (masalan, PP-59) orqali yagona startap qo'llab-quvvatlash mexanizmi.

O'zbekistonda globallashtirish va innovatsiyalar asosida biznesni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda; davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, investitsion muhitning yaxshilanishi va raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni yangi g'oyalarni tijoratashtirishga keng yo'l ochmoqda.

Shu bois tijoratashtirish mexanizmlarini o'zlashtirgan tadbirkorlar kelajakda eng katta muvaffaqiyatga erishadi.

Xulosa:

Innovatsion g'oyalarni tijoratashtirish iqtisodiy o'sishning muhim drayveri hisoblanadi. Samarali mexanizmlar orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va globallashtirish sharoitida barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, IT Park va davlat siyosati orqali startap ekotizimi jadal rivojlanmoqda. Kelajakda innovatsion g'oyalarni tijoratlash tirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi.

ADABIYOTLAR:

OECD (2025). OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2025.

The Role of Startups in Innovation and Growth (OECD Report).

Schumpeter, J. The Theory of Economic Development.

Chesbrough, H. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology.

IT Park Uzbekistan rasmiy hisobotlari (2025 yil statistikasi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-59-sonli qarori (2026).

World Bank. Modernizing Uzbekistan National Innovation System Project (MUNIS).